



KOMMUNIKATIV INTENSIYANING AYOLLAR NUTQIDA IFODALANISHI

Abdurasulova Dilnoza

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-kurs doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243892>

Annotatsiya: Ushbu maqolada pragmalingvistikaning yangi yo‘nalishlaridan biri – kommunikativ tilshunoslikning asosiy jihatlari tahlil qilingan. Xususan, jahon tilshunoslarining fikrlari va tahliliy xulosalariga tayangan holda, kommunikativ intensiya muammosini o‘rganishning ilmiy-nazariy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pragmalingvistika, kommunikativ intensiya, nutqiy akt, nutqiy ta’sirchanlik.

XX asrda tilshunoslikda pragmatika va tilshunoslikda kommunikativ maqsad (yoki intensiya) tushunchalari o‘z shaklini topa boshladi. Kommunikativ intensiya tushunchasi lingvistik pragmatika va sotsiolingvistika sohalarida shakllandi.

Intensiya (lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, intentio – niyat, maqsad) – so‘zlovchining kommunikativ maqsadi tushunchasini anglatadi. Jahon tilshunosligida kommunikativ intensiya (kommunikativ niyat) tushunchasi tilshunoslikning qator yo‘nalishlarida olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu sohada asosiy ilmiy yondashuvlarni yaratgan. Austin, S.Fish, B.Fraser, D.Gordon, G.Lakoff, W.Levelt, J.Sadock, J.Searle, P.Strawson, A.Wierzbiska, R.Wright, O.Pochepsov, V.Demyankov, I.Kobozeva, N.Formanovskaya kabi olimlar tomonidan nutqiy harakatni intensional hodisa sifatida tadqiq qilishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, hozirgi kunga qadar bu masala dolzarbligicha qolmoqda.

J.Searl – nutq aktlari nazariyasini rivojlantirib, gapiruvchining niyati va uning kommunikativ ma’nosi orasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan. H.Grays– implikatura va kooperativ prinsip konsepsiyasini taklif qilib, nutqda yashirin ma’nolar qanday hosil bo‘lishini o‘rgangan.

Sh.Safarovning qayd etishicha, “muloqot jarayonida ishtirokchilar o‘zaro munosabatlar tengligini ta’minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar. Kommunikativ maqsad ifodasi ikki yo‘sinda kechishi ma’lum. Bularning biri intensiyaning yashirin ifodasi bo‘lsa, ikkinchisi fikrni ochiq izhor qilishdir” [7:318].

Bu boradagi ilk yirik tadqiqotchilardan biri, ingliz tilshunosi J.Ostin [4]bo‘lib, u nutq akti tushunchasini kiritdi. Bu nazariyaga ko‘ra, so‘zlovchining maqsadlari, ya’ni kommunikativ niyatlari nutqning asosiy tarkibiy qismini hosil qiladi. Tilshunos Graysning “Kommunikativ maqsadlar nazariyasi”[1] ham kommunikativ intensiyaning tushunishda muhim rol o‘ynadi. U suhbat ishtirokchilarining maqsadlarini tushunish uchun kommunikativ maxsus qoida va maxsus axborotni ko‘rib chiqadi, bu esa til orqali amalga oshiriladigan maqsadlarning rivojlanishini anglatadi.



Intensiya – insonning gapirishdan maqsadi yoki niyati, ya’ni, u suhbatdosh bilan qanday maqsadda muloqot qilayotganini bildiradi. Oddiy qilib aytganda, odam gapirganda yoki yozganda, u nimanidir so‘rash, tushuntirish, buyurish, iltimos qilish, ma’lumot yetkazish yoki his-tuyg‘ularini ifodalash kabi qator maqsadlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, intensiya nutq jarayonining asosiy qismi bo‘lib, gapiruvchi va tinglovchi o‘rtasidagi tushunishni ta’minlashga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Graysning fikriga ko‘ra, suhbat ishtirokchilar odatda kommunikativ maqsadga erishish uchun kommunikativ niyatlarni amalga oshiradilar [1:183]. J.Searle har bir so‘z yoki ifoda o‘z ichida muayyan bir niyatni amalga oshirishi kerakligini ta’kidlagan.

O‘zbek tilshunosligida qator olimlar, jumladan, Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” [7] monografiyasida, A.Ko‘chiboyevning “Matn pragmatikasi” [3] qo‘llanmasida ham ushbu masalaga muayyan darajada to‘xtalib o‘tilgan. M. Hakimov [2] ilmiy matnning pragmatik tahliliga doir, M.Qurbonova [5] esa o‘zbek bolalar nutqining pragmalingvistik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqot olib borgan. Biroq, kommunikativ intensiya, uning turlari, shakllanish omillari hamda uni ifodalovchi lingvistik va ekstralingvistik vositalar o‘zbek va rus tilshunosligida hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

Ayollar nutqida intensiya ko‘pincha bir nechta jihatlarida ifodalanadi, chunki ayollarning nutqi odatda ijtimoiy va emotsional kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Ayollarning nutqidagi intensiya ifodalanishining asosiy sababi odatda boshqalar bilan hamkorlikni va hissiy aloqani kuchaytirish sanaladi. Masalan, “*Agar imkoningiz bo‘lsa, yordam bera olasizmi?*” (Qosimova Laylo, 29 yosh)

Ayollar ko‘pincha nutqda boshqalarga nisbatan iltifot va ehtiyotkorlik ko‘rsatadilar. Bu kommunikativ niyatning bir turi bo‘lib, suhbatdoshlarga izzat-ikrom ko‘rsatishni, ularning his-tuyg‘ulariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni maqsad qiladi: “*Agar sizni xafa qilgan bo‘lsam, uzr so‘rayman*”, “*Iltimos, meni noto‘g‘ri tushunmang, men faqat yordam bermoqchi edim.*” (Turdaliyeva Mahliyo, 22 yosh)

Bu ibora gapiruvchining o‘z niyatlari to‘g‘risida xavotirga tushganligini anglatadi. U aytganlari noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkinligini sezib, tinglovchining salbiy reaksiyasini oldini olishga harakat qilmoqda. “Men faqat yordam bermoqchi edim” iborasi, gapiruvchining ijtimoiy muloqotning maqsadi shunchaki qiyinchiliklarga duch kelgan vaziyatda yordam bermoqchi ekanligini ta’kidlaydi. Bu ehtimoliy tushunmovchiliklardan qochishga undash va ijtimoiy muloqotni qiyinlashtirmaslikka intilishdir.

Ayollar nutqida ko‘proq hissiy ifodalar va intonatsiyalar mavjud bo‘ladi. Nutqning intensivligi, ko‘pincha, his-tuyg‘ularni ifodalashga bog‘liq bo‘ladi. Ular o‘zlarini yoki suhbatdoshini qanday his qilishlarini ko‘proq nutq orqali namoyon qiladilar: “*Ooo, juda zo‘r ekan!*” (Akbaraliyeva Maftuna, 31 yosh) yoki “*Menga ham uchrashuv vaqtini oldindan aytasangiz bo‘lardi, men ham bermoqchi edim. Aytmaganingiz uchun xafa bo‘ldim.*” (Saidova Manzura, 30 yosh)



Suhbatdoshlarga qulaylik yaratish, ularning fikrlarini tasdiqlash va suhbatni davom ettirishga bo‘lgan ehtiyoj va intilish o‘zbek ayollari nutqida sezilarli darajada ko‘p uchraydi. Bu, ko‘pincha, fikrni so‘rab, *“nima deb o‘ylaysiz?”* yoki *“bu haqida nima deysiz?”* kabi savollarni berish orqali ifodalanadi. Misol: *“Sizningcha, chaqaloqni yo‘qlashga kunduzi borgan to‘g‘rimi yoki kech tushganda ham borsa bo‘laveradimi?”* (Qo‘ziboyeva Madina, 29 yosh). O‘zbek xalqining etiqod va urf-odatlarini bo‘yicha chaqaloqning uyiga shomdan keyin kirish odob hisoblanmaydi. Bu bolani ko‘z tegishidan, salbiy ta’sirlardan himoya qilish bilan bog‘liq. Shu sababli, savolda *“kech tushganda ham borsa bo‘laveradimi?”* degan qismi bevosita informatsion so‘roq emas, balki qayta tasdiqlashni talab qiluvchi pragmatik hodisa. Suhbatdosh shuni tushunishi va madaniy kontekstga mos javob berishi kutiladi. Shuningdek, so‘zlovchi bevosita *“Kechasi chaqaloq yo‘qlash noto‘g‘rimi”* demayapti, balki savol shaklida buni bilishga qiziqayotgandek ko‘rinmoqda. Nutqda so‘zlovchining maqsadi bilish emas, balki madaniy normalarni qayta tasdiqlatish niyati aks etgan.

Ayollar nutqida ko‘pincha suhbatdoshi bilan hamdardlik, empatiya, yaqinlik va qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi ularni tushunishga harakat qilishida aks etadi: *“Seni yaxshi tushunaman, bola katta qilish oson ish emas”* (O‘sarova Shahodatxon, 42 yosh)

“Agar nimanidir tushunmasang, yordam kerak bo‘lsa, istagan vaqtingda qo‘ng‘iroq qilaver” (Jo‘rayeva Shahlo, 36 yosh) *“Agar nimanidir tushunmasang”* jumlasini, so‘zlovchi tinglovchining tushunmaslik yoki qiyinchilikka duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatda do‘stona yordam berishga tayyor turishini ta’kidlaydi. Mazkur gapda yordam so‘rashga ochiq munosabatni, tushunmovchilikka nisbatan samimiy yondashuvni va qo‘llab-quvvatlashni ko‘rish mumkin. So‘zlovchining maqsadi — tinglovchi biror narsa tushunmasa, u yordam olishdan qo‘rqmasligini anglashidir.

Ayollar nutqida kommunikativ intensiyaning ifodalanishi ko‘proq ijtimoiy va hissiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan. Nutqda yumshoq so‘zlar, iltimoslar, empatiya va boshqalarga hurmat ko‘rsatish asosiy o‘rin tutadi. Ayollar, ko‘pincha, o‘z nutqlarida boshqalar bilan aloqani saqlash, samimiyligni oshirish, va ijtimoiy muhitda muvozanatni saqlashni istaydilar.

Masalan, yosh onalar nutqida tez-tez uchraydigan vaziyat: “Bolam, amaki “tegma deyapti”, urishib berarkan, tegma, “atata” qilarkan”. Ona, begona odamning buyumlariga tegmaslik, farzandini himoya qilish maqsadida ogohlantirmoqda. *“Urishib berarkan”* iborasi, amaki bolaning harakatidan g‘azablanishi mumkinligini anglatadi. **“Tegma”**: Bu ona farzandiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri begonalarning buyumlariga tegmaslikni buyuradi, shunda bola o‘z ishini to‘xtatadi.

“Atata”: Bu so‘z, bolaning gapni tushinishida yanada yordam bermoqda. Bu tushuntirish bolaga amaki (begona odam)ga va uning buyumlariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Ona o‘zining his-



tuyg‘ularini (xavotir, g‘azab) farzandiga bolalarcha izoh berib, uni nojo‘ya holatlardan himoya qilishga urinmoqda.

O‘zbek xalqida ota-onalar farzandlariga begonalarning narsalariga tegmaslik, kattalarga hurmat qilish muhimligini o‘rgatadi. Bu hurmat va ehtiyotkorlik asosidagi ijtimoiy normalarni amalga oshiradi. Farzand bilan ko‘p vaqtni onalar birga o‘tkazishgani uchun bu kabi vaziyatlar asosan ayollar nutqida uchraydi. Bu vaziyat pragmatik jihatdan onaning bolasi uchun xavfsizlikni ta‘minlash va ijtimoiy me‘yorlarga rioya qilishni istashi bilan bog‘liq.

Kommunikativ intensiyaning shakllanishida lingvistik modallar (masalan, imkoniyat, ehtimol, majburiyatni ifodalovchi modallar) ham muhim rol o‘ynaydi. Modallik, ayniqsa, so‘zlovchining nutqiy maqsadlarini, ya‘ni biror ishni amalga oshirish yoki qilishdan maqsadini ifodalashda yordam beradi. Modallik orqali so‘zlovchi muayyan so‘zlashuv maqsadini ko‘rsatadi, bu esa kommunikativ intensiyaning shakllantirishga yordam beradi.

Ayollar nutqi o‘rganilishiga oid tadqiqotlar, til va jinsning o‘zaro aloqasini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotlar ayollar nutqining ixtiyoriy va ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilib, til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Bu o‘rganishlar, shuningdek, gender rollari, kommunikativ strategiyalar, ijtimoiy maqom va tilning ijtimoiy funksiyalari haqida yanada kengroq tushuncha beradi.

Shuningdek, kommunikativ intensiyaning qanday ifodalanishi va ularning suhbatdagi maqsadlarni amalga oshirishga qanday ta‘sir qilishini o‘rganish tilshunoslarga til va ijtimoiy aloqalar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grice, H. P. Logic and conversation. // In P. Cole and J. Morgan (eds) *Studies in Syntax and Semantics III: Speech Acts*, New York: Academic Press, 1975.
2. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013.
3. Кўчибоев А. Матн прагматикаси (Ўқув-услубий қўлланма). – Самарқанд, 2015.
4. Остин Ж. / Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XVII. Теория речевых актов. Составление, вступительные статьи, послесловие и перевод на русский язык. – Москва: Прогресс, 1986.
5. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нуткиннинг прагматик хусусиятлари: ф.ф.номз. ...дисс. – Т., 2009
6. Richard J.; Ide, Sachiko; Ehlich, Konrad (2005). *Politeness in Language: Studies in its History, Theory and Practice*. Walter de Gruyter.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008.